



UDK: 39:908 (575.151)

Fayzulla OCHILDIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori
E-mail: fayzulla.ochildiev@gmail.com

T.f.d., prof. O'. Abdullayev taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF TRADE RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND AFGHANISTAN IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES

Annotation

The article examines the trade relations between the Bukhara Emirate and Afghanistan in the second half of the 19th and the early 20th centuries, as well as the leading role of Afghanistan in the emirate's trade relations with Eastern countries. It also analyzes the gradual subordination of Bukhara–Afghanistan trade relations to the economic interests of the Russian Empire following the establishment of its dominance over the emirate, the formation of Russian customs offices along the Bukhara–Afghan border by 1895, and their impact on trade and commercial activities.

Keywords: Bukhara Emirate, Afghanistan, Russia, trade, ruble, green tea, indigo dye, karakul pelts, foreign goods, caravan leader, markets, pood, customs, export.

ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА С АФГАНИСТАНОМ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Аннотация

В статье исследуются торговые связи Бухарского эмирата с Афганистаном во второй половине XIX – начале XX века, а также ведущая роль Афганистана в торговых отношениях эмирата со странами Востока. Кроме того, проанализированы вопросы постепенного подчинения торговых связей Бухарского эмирата с Афганистаном экономическим интересам Российской империи после установления её протектората над эмиратом, создания к 1895 году русских таможенных подразделений на Бухара–Афганской границе и их влияния на торгово-экономические процессы.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Афганистан, Россия, торговля, рубль, зелёный чай, индиговая краска, каракульские шкуры, иностранные товары, караванбаши, рынки, пуд, таможня, экспорт.

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGINING AFG'ONISTON BILAN OLIB BORGAN SAVDO ALOQALARI TARIXIDAN

Annotatsiya

Maqolada XIX asrning oxiri–XX asr boshlarida Buxoro amirligining Afg'oniston bilan olib borilgan savdo aloqalari, hamda amirlikning sharq mamlakatlari bilan olib borgan savdo aloqalarida Afg'oniston etakchilik qilganligi o'rganilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o'ziga bo'ysundirgandan so'ng Afg'oniston bilan olib borilgan savdo aloqalari asta-sekin Rossiya imperiyasining iqtisodiy manfaatlariga bo'ysundirilganligi, 1895 yilga kelib Buxoro-Afg'oniston chegarasida rus bo'xona bo'limlarining tashkil etilishi va uning savdo-sotiq ishlariga ta'siri kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Afg'oniston, Rossiya, savdo-sotiq, rubl, ko'k choy, nil buyog'i, qorako'l teri, xorijiy mahsulotlar, karvonboshi, bozorlar, pud, bo'xona, eksport.

Kirish. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi sharq mamlakatlari bilan izchil savdo-sotiq aloqalarini amalga oshirib kelgan. Bu davlatlar o'rtasida savdo-sotiqning rivojlanishida qulay sharoitlar yaratilganligi ham muhim omil vazifasini o'tagan. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o'ziga bo'ysundirgandan so'ng Afg'oniston bilan savdo aloqalari izchil davom etdi. Lekin bu savdo aloqalar asta-sekinlik bilan Rossiya imperiyasining iqtisodiy manfaatlariga bo'ysundirila boshlangani ham muhim omillardan biri sanaladi. 1870 yildan boshlab esa Buxoro-Afg'oniston savdo aloqalari Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mohiyatidan kelib chiqib amalga oshirila boshlandi. 1870 yilning yanvar oyidan boshlab Rossiya hukumati Turkiston o'lkasiga Yevropa mamlakatlaridan, ya'ni ingliz mollarining kirib kelishiga taqiq qo'ydi. Shu yildan boshlab Turkiston o'lkasiga ruxsatsiz olib kelingan ingliz mollari kontrabanda mollari sifatida rus ma'murlari tomonidan musodara qilina boshlandi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar. V.Klem, N.V.Xanikov, I.V.Vitkyevicha, D.X. Razzoqov, L.F.Kostenko, A.Ya.Sokolov, A.F.Gubarevich-Rodobl'skiy, A.Sh.Yorov kabi tadqiqotchilar XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro

amirligining Afg'oniston bilan olib borgan savdo aloqalari tarixiga doir masalalarni o'rganishga e'tibor qaratishgan. Shuningdek, arxiv manbalarida Buxoro amirligining Afg'oniston bilan izchil olib borgan savdo-sotiq aloqalari, hamda amirlikning yirik savdo markazlari bilan Afg'onistonning Qobul, Hirot, Maymana, Qunduz, Balx, Qandahor kabi shaharlari o'rtasida amalga oshirgan savdo-sotiq ishlari to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning metodologiyasi. Maqolada statistik va miqdoriy tahlil, qiyosiy tahlil hamda tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan atroflicha foydalanilgan. Dunyo miqyosida Buxoro amirligining XIX asrning oxiri–XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, xorij mamlakatlari bilan olib borgan savdo munosabatlariga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jumladan ushbu tadqiqotda Buxoro amirligining Afg'oniston bilan olib borgan savdo-sotiq aloqalariga bag'ishlangan masalalar ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Rossiya hukumatining Turkiston o'lkasiga nisbatan qo'ygan taqiqi bevosita Buxoro bozorlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada buxorolik savdogarlar amirlikda ishlab chiqarilgan savdo mollarini

Rossiyaga olib chiqishga katta e'tibor qaratdi. Shuningdek, Buxoro savdogarlari rus mahsulotlarini Afg'onistonga olib kirish salmog'i o'sib bordi[2]. Bu jarayon Buxorodan Afg'onistonga olib chiqiladigan savdo mollari ichida Rossiya sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'sib borishiga imkon berdi.

1881 yildan boshlab Buxoro va Turkiston chegarasida savdo mollari o'tkazish uchun maxsus bojxona bo'limlari (punktlar) joriy qilindi[3]. Shundan so'ng belgilangan bo'limlar orqali olib o'tilmagan ingliz va xorij mollari musodara qilina boshlandi. Bu esa Buxoro bozorlarida ingliz (xorij) mahsulotlarining asta-sekin kamayishiga olib keldi. 1881 yildan boshlab Rossiyadan Buxoro amirligiga deyarli har kuni savdo karvoni kirib kela boshlagan. 1883 yildan boshlab esa amirlik xududiga Afg'onistondan oyiga 1 marta savdo karvoni kelganligi qayd qilingan[4].

Rossiya hukumati Afg'onistondan Buxoroga ingliz mahsulotlarini olib kirishga qanchalik qarshilik ko'rsatmasin, ingliz mollari amirlikka kirib kelishini to'xtatib qolaolmagan. Buxoro bozorlarini xitoy, hind choylari, nil bo'yog'i va ingliz dokasi bilan ta'minlashda etakchilikni qo'ldan bermay kelgan. 1888 yilning iyun-iyul oylarida Afg'onistondan Buxoroga 2 961 102 rubllik mollar olib kirilgan. 1889 yilning birinchi yarmida esa Buxoro amirligidan 1 084 910 rubllik rus mollari va 133 ming 475 rubllik Buxoro mahsulotlari eksport qilingan. 1889 yilda Afg'onistondan Buxoroga 12 ming 600 pud ko'k choy, 5 ming 600 pud nil bo'yog'i, 800 pud dorivorlar, 1 mln 280 ming pud ingliz dokasi, 198 ming 400 pud jun, 15 ming 200 pud teri,

480 pud anor po'stlog'i, 1 mln 600 ming pud qora mayiz olib kelingan[5]. Buxoro-afg'on savdosida buxorolik karvonboshilarning o'rni ham muhim bo'lgan. Masalan, Sayfulla, Xolberdi va Qurbon karvonboshilar Buxoro-Qobul, Rahmonqul, Xolmurod va Abduvohid kabi karvonboshilari Buxoro-Maymana, Otaboy, Rahmon va Abdurasul karvonboshilar Buxoro-Axcha, Mirzaboy va Karimboy karvonboshilar esa Buxoro-Andxoy yo'nalishlarida qatnaydigan karvonlarga yo'l boshchilik qilib kelishgan[6]. Murod, Ashurboy, Po'latboy kabi karvonboshilar amirlikda mashhur bo'lib, bu karvonboshilar 1882 yilda Afg'onistonning Shibirg'on, Saripul, Axcha va Andxoy shaharlariga mahalliy va Rossiyada ishlab chiqarilgan jami 2 mln 182 340 rubllik mahsulotlarni savdoga chiqargan[7].

XIX asr oxiriga kelib Shimoliy Afg'onistondan Buxoro amirligiga yiliga 100-110 ming dona atrofida qorako'l terisi keltirilgan[8]. Buxoro qushbegisining amirga bergan hisobotida Afg'onistondan Buxoroga yiliga 6 ming tuyada savdo mollari olib kirilib, yukning katta qismini qorako'l terisi tashkil qilganligi ta'kidlangan[9]. 1895 yili Qandahordan 150 ming pud-jami 750 ming rubllik jun hamda Qunduz, Maymana va Andxoydan suruvlab chorva mollari G'uzor va Qarshi bozorlariga haydab kelingan, olib kirilgan chorva mollari narxi esa 1 mln 500 ming rubldan oshgan[10].

Quyidagi jadvalda 1889-1891 yillar kesimida Afg'onistondan Buxoro amirligi bozorlariga olib kirilgan savdo mahsulotlarining o'sish va kamayish dinamikasining tahlili keltirilgan[11].

Mollar turi	1889 y.	1890 y. rubl	1891 y.
Jun	139.680 rubl	99.280 rubl.	51.248 rubl.
Tulki terisi	6.400 rubl	9.296 rubl.	6.816 rubl.
Qorako'l terisi	2.320 rubl	1.412 rubl.	2.620 rubl.
Qo'zi terisi a) qora	3.310 rubl	4.630 rubl.	10.480 rubl.
B) malla rang	2.150 rubl	3.200 rubl.	-
V) oq rang	2.400 rubl	1.700 rubl.	800 rubl.
Qo'y terisi	2.200 rubl	9.300 rubl.	12.700 rubl.
Jun qoplar	320 rubl	3.120 rubl.	4.800 rubl.
Gilam	240 rubl	688 rubl.	336 rubl.
Kunjut	29.520 rubl	33.840 rubl.	22.400 rubl.
Zig'ir	18.320 rubl	18.400 rubl.	9.520 rubl.
Kishmish	15.220 rubl	7.680 rubl.	6.400 rubl.
Bodom	160 rubl	34.440 rubl.	720 rubl.
Olxo'ri	240 rubl	80 rubl.	-
Xurmo	160 rubl	80 rubl.	-
Pista (tozalangani)	160 rubl	320 rubl.	-
Pista (tozalanmagani)	400 rubl	-	-
Buzg'uch (qizil bo'yoq)	5.680 rubl	7.920 rubl.	1.808 rubl.
Isparak (sariq bo'yoq)	1.440 rubl	1.840 rubl.	960 rubl.
Anor po'chog'i	2.000 rubl	2.800 rubl.	1.120 rubl.
Lojuvard	-	50 rubl.	50 rubl.
Ko'knori	-	180 rubl.	130 rubl.
Jami:	232.620 rubl	240.256 rubl	116.942 rubl.

1889-1892 yillar oralig'ida Hind-ingliz savdo mollari Qobuldan Buxoro amirligi bozorlariga olib kirilgan mahsulotlar miqdori [12].

Mollarning nomlanishi		1889	1890	1891	1892	Bir pud mahsulotning bahosi
Ko'k choy.	Xitoy.	35,400 r.	10,200 r.	37,200 r.	18,912 r.	41 rubl
	Hind.	11,360 r.	5,700 r.			20 rubl
Indigo		14,416 r.	7,200 r.	14,880 r.	6,160 r.	34 rubl
	Doka ro'mol	6,320 r.	3,040 r.	6,080 r.	1,392 r.	54 rubl
Ambarsari ro'moli		90 r.	60 r.	-	-	150 rubl
Kashmir ro'moli		-	40 r.	-	-	480 rubl

Hind parchasi.	170 r.	70 r.	–	–	650 rubl
Oq kolenkor	720 r.	400 r.	400	–	35 rubl
Jami rublda	3,375,584	1,147,500	2,213,200	977,920	

1890 yildan so'ng amirlikdan Afg'onistonga chiqariladigan savdo mollari ichida mahalliy mahsulotlarga nisbatan rus mollarning miqdori oshib borgan. Buxorolik savdogarlar asosan Afg'onistonga Rossiyaning fabrika va sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ko'proq olib kira boshladi. 1894–1895 yillarda Buxoro amirligidan har yili Afg'onistonga 1 mln 500 ming rubldan ortiq savdo mollari eksport qilinishi, shundan 300 ming rubllik mollar mahalliy, qolgan qismi esa Rossiya manufakturasini mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelgan[13].

Bu yerda shu narsaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1894 yilga kelib Afg'onistondan Buxoroga mol olib kirish sezilarli darajada qisqarib ketganligi kuzatiladi. Masalan, shu yilning birinchi yarmida 812436 rubllik, ikkinchi yarmida esa 775306 rubllik mol olib kelingani[14]. Buxoro-Afg'oniston savdosining tushib ketishiga 1892 yilda Afg'onistonda tarqalgan vabo epidemiyasi va hazor qabilalarining amir Abdurahmonga qarshi ko'tarilgan isyonini sabab qilib ko'rsatish mumkin[15]. Shuningdek, Buxoro-Afg'oniston savdosining hajmi kamayib borishiga, Rossiya imperiyasining XIX asr oxiridan joriy etgan boj siyosati ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Endilikda Buxorodan Afg'onistonga rus sanoati mollarni olib kirish kuchaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Rossiya mahsulotlari katta hajmda savdoga chiqarilishiga qaramay, Buxoro-Afg'oniston savdosi ikki mamlakat savdogarlari tomonidan amalga oshirilib, bu jarayon XX asrning 20-yillarigacha davom etgan.

1868 yilda Buxoro amirligi o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotgan bo'lsa, 1895 yilga kelib iqtisodiy mustaqilligini ham qo'ldan boy berdi. Shu yildan Buxoro-Afg'oniston chegarasida Kalif, Cho'chqaguzar, Pattakesar, Ayvaj kabi rus bo'limlari ochildi. Shundan so'ng Afg'onistondan ba'zi ingliz mahsulotlarini Buxoro amirligiga olib kirish taqiqlandi va qolganlari uchun katta miqdorda bojlar belgilandi[16].

Turkiston bo'limlari okrugi boshlig'ining ma'lumotiga ko'ra, amirlik Rossiya bo'limlari tarkibiga kiritilgandan so'ng xorij va afg'on savdogarlari uchun Buxoroga savdo mollarni olib kirishda mahsulot qiymatidan kelib chiqib 5 foizdan boj to'lash tartibi joriy qilingan[17]. Boj to'lovining joriy etilishi afg'on va xorij savdogarlari o'rtasida katta noroziliklarga sabab bo'ldi. Bunga javob tariqasida amir Abdurahmon ham Buxorodan keltirilgan ayrim savdo mollariga boj solig'ini joriy qildi va ayrim turdagi mahsulotlarni Afg'onistonga kiritishga taqiq qo'ydi. Afg'onistondan g'alla va don

Bojxona bo'limlari	1896 yil		1900 yil		1904 yil	
	Ekspart	Import	Ekspart	Import	Ekspart	Import
Karki	116138	1204758	-	868248	1356769	768581
Kalif	373123	189897	679474	722671	1131763	657177
Cho'chqaguzar	133723	257762	30534	148647	10020	140368
Patta-Kesar	11809	181967	29087	18433	28750	408777
Ayvaj	100839	32567	40278	112892	9166	134583
Saroy	36005	71047	19260	6448	-	7009
Chubek	58234	58048	39278	4040	7690	7969
Jami	1884871	1996046	837911	1881379	2544158	2124464
Umumiy Hajmi	3880917 rubl		2719280 rubl		4668612 rubl	

1906 yili Afg'onistondan Buxoro amirligiga 4 468 279 rubllik savdo mollari olib kirildi. Shundan 2 577 976 rubllik mahsulotlar Amudaryo bo'ylab joylashgan bo'limlari punktlari orqali, 1 186 254 rubllik savdo mollari esa bojsiz aylanma yo'llar orqali olib kirilgan[23]. Shuningdek, 260 ming bosh qo'ylar ham bojsiz olib kirilib, oldingi yilga nisbatan 60 ming boshga ko'paygan va ularning narxi 114 ming rublga baholangan. Buxorodan esa 1 mln 890 303 rubldan ortiq mahalliy va rus savdo mollari Afg'onistonga chiqarilgan[24]. XX asr boshlariga kelib mahalliy va rus mahsulotlarini

mahsulotlari, qoramol, ot va tuyalarni Buxoroga chiqarishni, amirlikdan ot, tuya hamda qimmatbaho mahsulotlarni Afg'onistonga chiqarish taqiqlandi[18].

1895 yildan boshlab Kalif, Cho'chqaguzar, Pattakesar, Ayvaj kabi bo'limlarga chegara hududlari ruslar tomonidan nazoratga olindi. Bu bo'limlar orqali yiliga 2 362 ming rubllik turfa savdo mollari ayiriboshlandi. Shu yillar oralig'ida Buxoroga sharq mamlakatlaridan 13 mln 274 ming rubllik savdo mollari keltirilgan bo'lsa, shundan 6 mln 500 ming rubllik savdo mollari Afg'oniston hisobiga to'g'ri kelgan[19].

Rus bo'limlari ustaviga ko'ra, yuqorida aytilganidek, bo'limlarga tekshiruvdan o'tmagan savdo mollari Buxoro amirligining qaysi hududida bo'lishidan qat'i nazar qo'lga tushsa, mahsulotlar musodara qilinishi belgilab qo'yildi[20]. Buxoroning rus bo'limlari tizimiga tortilishi natijasida savdogarlar bo'limlari chetlab o'tish yo'llarini izlab topa boshladi. 1895 yil davomida 38 nafar afg'on savdogari bo'limlarni aylanib o'tib, noqonuniy savdo mollarni olib kirishgan va bo'limlarchilar tomonidan ushlanib, ularning 330 ming rubllik mollari musodara qilingan[21].

Rossiyaning Buxoro amirligi ustidan yuritgan mustamlakachilik va bo'limlarga siyosatiga qaramasdan, XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Buxoro amirligining sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarida Afg'oniston etakchilik qildi. Rus bo'limlari tizimini yo'lga qo'yilgandan so'ng Buxoro savdogarlari Afg'oniston hududida ikkita vazifani bajardi. Birinchidan, Buxoro savdogari sifatida faoliyat olib borgan bo'lsa, ikkinchidan, Afg'oniston va Rossiya o'rtasida vositachi vazifasini o'tadi. Ayniqsa, afg'on shohi Abdurahmonning rus savdogarlarini mamlakat hududiga kirishini taqiqlash to'g'risidagi qaroridan so'ng Buxoro savdogarlarining nufuzi yanada ortib ketdi. Rus hukumati Afg'oniston bilan o'rtadagi muammoni echish maqsadida rus sanoatida ishlab chiqarilgan matolar, shakar, kerosin, temir, gugurt kabi mahsulotlarni Afg'onistonga eltib sotgan Buxoro savdogarlariga imtiyozlar berdi. Xususan, Afg'onistonga olib borib sotilgan rus matosining har bir pudi uchun savdogarlarga 4 rubl 50 tiyngacha mukofot puli berilgan. Shuningdek, mahsulotlarni rus firmalaridan 14 foiz chegirma bilan sotib olishga ruxsat etildi hamda ular savdo soliqlaridan ham ozod qilindi.

1896–1904 yillarda rus bo'limlari orqali Buxoro-Afg'oniston o'rtasida amalga oshirilgan savdo aloqalarini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin[22].

Afg'onistonga eksport qilish yildan-yilga oshib bordi. Afg'onistondan Buxoroga chorva mollari, qorako'l teri, tulki, qo'y va echki terilari, jun, gilam, bodom, mayiz kabi mahsulotlarning kirib kelishi izchil davom etdi. Bu davrda Afg'onistondan amirlik bozorlariga keltirilgan junning 40-50 foizi hamda chorva mollarning bir qismi Rossiya va Evropa mamlakatlariga ham chiqarilgan.

1906–1910 yillarda o'rtacha yillik savdo aylanmasi 5 mln 857 ming rubldan 6 mln. 400 ming rublga ko'payib, bu davrda savdo hajmi oldingiga nisbatan 50 foizgacha oshgan.

1910–1911 yillarga kelib esa ikki mamlakat o'rtasidagi umumiy savdo aylanmasi yiliga 10 mln rublga etib, 1896–1897 yillarga nisbatan uch baravarga o'sgan[25]. XX asr boshlarida Buxoro–Afg'oniston o'rtasidagi savdo hajmining o'sishiga, birinchidan, amirlikdan Afg'onistonga rus mahsulotlarining katta miqdorda olib borilishi, ikkinchidan esa Afg'onistondan Rossiya sanoati uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning olib kirilishi asosiy omil bo'lgan.

Xulosa va takliflar. XIX asrning oxiri–XX asr boshlarida Buxoro amirligi Afg'oniston bilan izchil savdo aloqalari olib bordi. Amirlikning sharq mamlakatlari bilan olib

borgan savdo aloqalarida Afg'oniston etakchilik qildi. Buxorolik savdogarlar Afg'onistondan olib kelingan savdo mollarni Rossiyaga olib chiqishda va rus mahsulotlarini Afg'onistonga olib kirishda etakchilik qildi. Rossiya hukumati Buxoro-Afg'oniston savdo aloqalarini to'liq nazorat qilolmadi. Afg'on savdogarlari Buxoro bozorlarini Xitoy hind choylari, nil bo'yog'i va ingliz mahsulotlari bilan ta'minlashda peshqadamlilikni saqlab qoldi. Endilikda savdogarlar uch tomonlama – xonlik ichkarisi va tashqarisida hamda Rossiya imperiyasining bo'ljona bo'limlarida boj to'lashga majbur bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. O'zMA, I 1-jamg'arma, 20-ro'uxat, 1394-ish, 5-varaq.
2. Разоков Д.Х. Бухоро хонлигининг ташки савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). – Тошкент, 1994., – Б.100.
3. O'zMA, I 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 1162-ish, 69-152-varaqlar.
4. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. – СПб., 1885. Вып. XV. – С. 183.
5. Туркестанский сборник, том. 526. – С. 6.
6. O'zMA, I 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 696-ish, 11-varaq.
7. O'zMA, I 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 696-ish, 3-varaq.
8. O'z MA, 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 696-ish, 3-varaq, orqasi
9. O'zMA, I 126-jamg'arma, 1-ro'uxat, 1029-ish, 1-varaq.
10. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С. 144.
11. Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развитие русско-афганских торговых отношений. – Ташкент: Фан. 1961. - С.158.
12. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. Вып. II. - С.Петербург.1912. - С.107
13. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – Вып. II.- С.Петербург. 1912. – С. 113.
14. O'zMA, I 1-jamg'arma, 2-ro'uxat, 29-ish, 60-63-varaq.
15. O'zMA, I 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 766-ish, 1-varaq.
16. Тухтаметов Т. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе, 1977. – С. 137.
17. Разоков Д.Х. Бохоро хонлигининг ташки савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). – Тошкент. 1994. – Б.112.
18. O'zMA, I 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 791-ish, 95-varaq.
19. O'zMA, I 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 791-ish, 94-varaq.
20. O'zMA, I 1-jamg'arma, 29-ro'uxat, 1228-ish, 2-varaq.
21. Туркестанский ведомости. 1896. 30 октябрь.
22. Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развитие русско-афганских торговых отношений. – Ташкент: Фан. 1961. - С.178.
23. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С. 120 – 123.